

**SALMONELLYOZLAR USTIDAN EPIZOOTOLOGIK VA
EPIDEMIOLOGIK NAZORAT**

N.S.Saidkasimova, M.K Jumaniyazova, N.T. Xamzayeva

So‘nggi paytlarda dunyo bo‘ylab oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha nazorat olib boruvchi idoralar oziq-ovqat orqali yuqadigan salmonellyozlarning epidemik avj olayotganini, kasallanishning keng tarqalib ketmasligini nazorat qilish uchun, kasallanish monitoringini kuchaytirish va maqsadli nazorat choralarini ko‘rish zarurligini ta’kidlamoqdalar.

Salmonellyoz ustidan epidemiologik nazorat tizimida muhim o‘rinni asosiy komponentlardan biri bo‘lgan epidemiologik tashxisot egallaydi, bu kasallanishning sporadik va epidemik avj olishiga sabab bo‘luvchi shart-sharoit va sabablarni aniqlashga qaratilgan. Hozirgi kunda ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish bo‘yicha kompleks dasturlarning amalga oshirilishi, doimiy ravishda idoralararo o‘zaro birgalikda harakat qilish, qo‘zg‘atuvchi-patogenlarni tekshirishning molekular-genetik usullariga asoslangan laboratoriya diagnostik usullarini qo‘llash (PFGE, MLVA) epidemiologik tashhisot sifatini oshirishga yordam beradi.

Epidemiologik tashhisot vazifalaridan biri salmonellyoz bilan bog‘liq holat yomonlashuviga sabab bo‘luvchi darakchi axborotlar va shart sharoitlarni aniqlashdir. Salmonellyozlarda epidemiologik holatning yomonlashuviga sabab bo‘luvchi 4ta asosiy darakchi ma’lumotlarni ajratish mumkin. Ulardan biri atrof muhit omillari bilan bog‘liq bo‘lib, epizootik holatning yomonlashuvidir. Bunday o‘zgarishlarni ilg‘ash uchun salmonellyozlar bo‘yicha noxush chorvachilik va parrandachilik xo‘jaliklarini aniqlab beruvchi epizootik monitoring olib boruvchi veterinariya xizmati bilan yaqin hamkorlikda bo‘lish lozim.

Salmonellyozlarni epidemiologik nazoratini olib boruvchi xalkaro tashkilotning ta’kidlashicha, so‘nggi o‘n oy ichida *S. Yenteritidis* keltirib chiqargan 50% dan 90 % gacha kasallanish parranda go‘shti, parrandachilik mahsulotlari va tuxum mahsulotlarini iste’mol qilish natijasida kelib chiqqanligi ma’lum bo‘lgan (*mayonez, mus, va b.q*). Oxirgi yillarda tovuq mahsulotlarini iste’mol qilish salmonellyoz bilan kasallanishning asosiy omili bulib xizmat qilmoqda, va bu o‘z navbatida uyda boqiladigan parrandalarning kasallanishini kamaytirish muhim ekanligidan dalolat beradi .

Sergevnin V I. (1995) salmonellyozlar dunyodagi eng keng tarqalgan zoonozga aylanganligi sababli, qishloq xo‘jaligi hayvonlari va qushlar, shuningdek, parrandalar mahsulotlarining epidemiologik ahamiyati ortib borayotganligini ta’kidlab, epizootik va epidemik jarayonlarning bu aloqasi epizootik va epidemiologik kuzatuv

tamoyillariga muvofiq salmonellyoz epidemiologik nazorat tizimini qayta tuzish talab qilishini aytib o'tgan.

Hozirgi vaqtda O'YuIK larining sirkulyatsiya qiluvchi qo'zg'atuvchilari peyzajini monitoring qiluvchi ishlab chiqilgan texnologiya mavjud emas, mikroorganizmlarni zamonaviy identifikatsiya qilish usullari faqat epidemik avj olishlarni aniqlashda yoki ilmiy maqsadlarda amalga oshiriladi. O'YuIKlarni epidemik jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatish va kasallikning oldini olish uchun hududlarda sirkulyatsiya qiladigan qo'zg'atuvchilarni mikrobiologik monitoring qilish texnologiyasini amaliyotga kiritish kerak.

Xududlarda hayvonlar va parrandalarning boqilishining ko'payganligi, hayvon va parrandalar ularning mahsulotlari, yemlari bilan halkaro savdoning kengayishi salmonellalarning yangi xususiyatlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Hayvonlarni va parrandalarni so'yish va qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalarining joriy etilishi, umumiy ovqatlanish tarmog'ining xususiylashtirilishi salmonellyoz kasalligining tarqalishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саидкасимова, Н. С., Матназарова, Г. С., Хамзаева, Н. Т., & Жуманиязова, М. К. (2024). COVID-19 пандемияси даврида сальмонеллэз билан касалланишнинг эпидемик жараёнининг хусусиятлари. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 32(1), 27-30.
2. Sultanovna, M. G., & Sayfullaevna, S. N. (2024). The mechanism of development of the epidemic process in salmonellosis. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 41(5), 201-205.
3. Саидкасимова Н. С., Жуманиязова М. К., Хамзаева Н. Т. Влияние социальных факторов на формирование заболеваемости сальмонеллэзов в узбекистане //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 96-97.
4. Миртазаев, О. М., Матназарова, Г. С., & Магзумов, Х. Б. (2023). Зоонозный сальмонеллэз-болезнь цивилизации. *микробиологиянинг долзарб муаммолари» мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани*, 132.
5. Saidkasimova, N. S., Mirtazaev, O. M., & Matnazarova, G. S. (2023). Salmonellyozlarda epidemiologik va epizotologik nazorat.
6. Миртазаев, О. М., Матназарова, Г. С., Саидкасимова, Н. С., & Магзумов, Х. Б. (2022). Сальмонеллэзларга қарши курашиш ва унинг олдини олиш бўйича чора тадбирлар тизимини назарий асослаш. *Международная научно-практическая конференция "Актуальные проблемы инфектологии, эпидемиологии и паразитологии"*.
7. Миртазаев, О. М., Саидкасимова, Н. С., Матназарова, Г. С., & Хатамов, А. (2022). характеристика проявления эпидемического процесса

- сальмонеллёза. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(2), 18-31.
8. Саидкасимова, Н., & Миртазаев, О. (2021). Ўзбекистонда сальмонеллёзларнинг эпизоотологик ва эпидемиологик назоратини такомиллаштириш.
 9. Саидкасимова, Н. (2021). Алгоритм проведения эпизоотолого-эпидемического надзора за сальмонеллезами в Узбекистане.
 10. Миртазаев, О. М., Матназарова, Г. С., & Брико, Н. И. ЭПИДЕМИОЛОГИЯ.
 11. Saidkasimova, N. S., Mirtazaev, O. M., Matnazarova, G. S., Toshbaev, B. Y., & Khatamov, A. N. (2021). Epidemiological and Epizootological Characteristics of Salmonellosis and Improvement of Their Epidemiological Control. *JournalNX*, 610-618.
 12. Саидкасимова, Н. С., Миртазаев, О. М., & Миртазаева, Н. А. (2020). Социальные факторы, влияющие на заболеваемость сальмонеллезами в Узбекистане. In *Школа эпидемиологов: теоретические и прикладные аспекты эпидемиологии* (pp. 63-65).
 13. Mirtazayev, O. M., Briko, N. I., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., Toshboev, B. Y., & Khamzaeva, N. T. (2020). Scientific, methodological and organizational bases of management of the epidemic process in case of salmonellosis infection in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Pediatrics*, 3, 5-14.
 14. Mirtazayev, O. M., Briko, N. I., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., Toshboev, B. Y., & Khamzaeva, N. T. (2020). Scientific, methodological and organizational bases of management of the epidemic process in case of salmonellosis infection in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Pediatrics*, 3, 5-14.
 15. Саидкасимова, Н., & Миртазаев, О. (2021). Ўзбекистонда сальмонеллёзларнинг эпизоотологик ва эпидемиологик назоратини такомиллаштириш.